

**ZAMONAVIY TA'LIM YONDASHUVLARIDAN
FOYDALANGAN HOLDA, TALABALARNING AXLOQIY - ESTETIK
DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH.**

Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna
**“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND
PEDAGOGY” NOTM**

“Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada axloqiy-estetik dunyoqarashning mohiyati, shaxs rivojida axloqiy-estetik dunyoqarashning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati, talabalarning axloqiy-estetik dunyoqarashni rivojlantirishda zamonaviy ta'lim yondashuvlaridan foydalanish usullari, amaliy mashg'ulotlar jarayonida

qo'llaniladigan interfaol metodlar asosida talabalarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari oshirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim yondashuvlari, axloqiy-estetik dunyoqarash, shaxs, jamiyat taraqqiyot, shaxsiy va kasbiy sifatlar, interfaol metodlar, kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat, muloqot madaniyati.

Абстрактный. В статье рассматривается сущность нравственно-эстетического мировоззрения, роль и значение нравственно-эстетического мировоззрения в развитии личности, в развитии общества, методы использования современных образовательных подходов в формировании нравственно-эстетического мировоззрения студентов, а также процесс производственной практики.

Речь идет о расширении возможностей студентов развивать свои личные и профессиональные качества на основе используемых интерактивных методов.

Ключевые слова: современные образовательные подходы, нравственно-эстетическое мировоззрение, личность, социальное развитие, личностные и профессиональные качества, интерактивные методы, профессиональная компетентность, педагогическое мастерство, культура общения.

Abstract. This article discusses the essence of the moral-aesthetic worldview, the role and importance of the moral-aesthetic worldview in the development of the individual, the methods of using modern educational approaches in the development of students' moral-aesthetic worldview, and the opportunities for developing students' personal and professional qualities based on interactive methods used in the process of practical training.

Keywords: modern educational approaches, moral and aesthetic outlook, personality, social development, personal and professional qualities, interactive methods, professional competence, pedagogical skills, culture of communication.

Dunyo miqyosida ma'naviy tarbiyaga bo'lgan e'tiborning ortib borishi

hamda buning natijasida ommaviy madaniyatning yoshlar madaniyatiga ta'siri kuchayib borayotgan holatda jamiyatda axloqiy-estetik tarbiyaning ahamiyati yanada muhim bo'lmoqda. Ijtimoiy jamiyat taraqqiyotida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda milliy ta'lim tizimida madaniyat va san'atning demokratlashib va transformatsiyaga uchrab borayotgan sharoitda yoshlar ongida axloqiy - estetik tarbiyani singdirish masalasi juda ahamiyatli hisoblanadi.

Har bir inson va shaxs ongida axloqiy-estetik dunyoqarashni trabiyalash bilan birga uning o'z-o'zini rivojlantirib borish ko'nikmasiga egaligini baholab borish bugungi zamonaviy ta'lim oldida turgan muhim muammolardan biridir.

Ilmiy adabiyotlardan ma'lumki, dunyoqarash inson ma'naviyatining muhim tarkibiy qismi sanalib, olam va odam haqida bir butun qarashlar, g'oyalar tizimini anglatuvchi falsafiy kategoriya tushunchasidir. Dunyoqarash har bir shaxsning mohiyati, olamga munosabati, dunyodagi o'rni, hayot yo'li, o'zligini anglashga xizmat qiladigan qarashlar tizimidir.

Sog'lom aql, erkin tafakkur va uning rivojiga mos keladigan ma'naviy tarbiyaning asosiy mazmuni axloqiy-estetik dunyoqarash hisoblanib, yosh avlodni muqaddas an'alarimizni anglash, ularni vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda sog'lom faoliyat yuritish, mustahkam mafkuraviy immunitetga ega

bo'lish, ma'naviy jihatdan barkamol inson sifatida kamol topish, erkin, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanish uchun o'zini rivojlantirib borish ko'nikmalarini qaror toptirish imkoniyatini yaratadi.

Ushbu imkoniyatlar, aynan uzluksiz ta'lim jarayonlarida amalga oshiriladigan o'qitishda zamonaviy yondashuvlarga asoslanish orqali ta'lim oluvchilarda shaxsiy hamda hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirishga xizmat qiluvchi metodlarni qo'llash jarayonida tarkib topib boradi.

Bu borada shuni ham aytib o'tish joizki, zamonaviy ta'lim texnologiyasida o'qitishning bir qator usul hamda shakllari mavjudki, ularni amaliyotga tadbiq etish borasida tegishli tavsiyalar etarlik emas, bu esa o'qitish jarayonini bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish borasida qiyinchilik tug'diradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'zaro munosabatlar, aloqalar, hamkorlikdagi aqliy mehnat, muomala maromi mustaqil fikrlashni shakllantiruvchi omillar sifatida yuzaga keladi. Talabada-yoshlarda yuzaga keladigan tanqid, o'zini-o'zi tanqid, baholash, o'zini-o'zi baholash, tekshirish, nazorat qilish, o'zini-o'zi namoyon etish, mulohaza, mushohada iborat mustaqil fikr yuritishning mahsulidir. Amaliy va nazariy ahamiyatga molik ilmiy farazlar, g'oyalar, ulug'vor maqsadlar, yuksak va ezgu niyatlar esa uning vazifasiga kiradi. O'quv faoliyatida fikr yuritishning o'zaro mustahkam bog'langan yopiq zanjiri yuzaga keladi: «mustaqil fikrlash -muammo - masala (topshiriq)».

Talabalar axloqiy-estetik dunyoqarashini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim yondashuvlaridan foydalanish o'zining samaradorligi, dolzarbligi, universalligi bilan ularni komillik sari etaklaydi, tabiat va jamiyat hodisalarini anglashda yoshlar tafakkurida puxta zamin hozirlaydi. Talabalarning ixtiyoriy ravishda o'z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo'ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va nazariy fikr yuritish, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan muammoni hech kimning ko'magisiz, o'z aqliy izlanishi tufayli turli yo'l, usul, vosita topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak. O'z fikrini aniq, izchil, ziddiyatsiz, asosli, ishonarli ifoda etish, o'z xulosalarini isbotlay olish, lozim bo'lganda, bahs-munozarada

o'zgalarning xato fikrini dadil rad eta bilish malakasi xam juda muhim. Ushbu fazilatlar, ravshanki, o'z - o'zidan shakllanmaydi.

Talaba axloqiy-estetik dunyoqarashni rivojlantirishda zamonaviy ta'lim yondashuvlaridan foydalanish ehtiyojini tug'diradigan yangi pedagogik texnologiyalar o'quv - tarbiya jarayoniga joriy etilishi yoshlar tafakkurini bir qolipga solib qo'yuvchi har qanday eski andozalardan qat'iy voz kechish, erkin ijodiy fikr parvozi uchun ufqlarni ochish lozim.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, mazkur o'quv-uslubiy tavsiyalarda o'z ifodasini topgan o'qitishning zamonaviy usullari barcha turdagi ta'lim-tarbiya mashg'ulotlarda qo'llanishi mumkin. Ayniqsa, amaliy mashg'ulotlar jarayonida ularning qo'llanishi maqsadga muvofiqdir. Ulardan unumli ravishda foydalanish esa har bir o'qituvchining pedagogic mahoratiga bog'liqdir.

Fikrlar hujumi. Bevosita jamoa bo'lib «Fikrlar hujumi» («Mozgovaya ataka») olib borish. Bu metoddan maqsad mumkin qadar katta miqdordagi g'oyalarni yig'ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo'lgan fikrlarni engishdir.

Mazkur metod A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan. Metodning asosiy tamoyili va qoidasi bahs ishtirokchilari ishlab chiqqan g'oyalar tanqidini mutlaq taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoibani rag'batlantirishdir. Bu metoddan foydalanishning muvaffaqiyatli tashkil etilishi ko'p jihatdan o'qituvchi - mashg'ulot rahbariga bog'liq. «Fikrlar hujumi» ishtirokchilari miqdori 15 kishidan oshmasligi kerak. Mashg'ulotning davomiyligi bir soatgacha.

Yalpi «Fikrlar hujumi». Bu -metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan. U

katta guruhlarda (20 tagacha bo'lgan) yangi g'oyalar ishlab chiqish samaradorligini

sezilarli darajada oshirishni ta'minlaydi. Barcha ishtirokchilar kichik-kichik 5-6 kishidan iborat guruhlarga bo'linadi va har bir kichik guruh hal qilinadigan ijodiy

vazifa va muammo bo'yicha 15 daqiqa davomida mustaqil ravishda o'zaro «Fikrlar hujumi» o'tkazadi.

Shundan so'ng, har bir kichik guruh vakili o'z guruhlarida ishlab chiqilgan g'oya haqida axborot beradilar va o'qituvchi rahbarligida jamoa bo'lib unga baho beradilar va ulardan eng yaxshilari, betakrorlari tanlab olinadi.

«Fikrlarning shiddatli hujumi» - destruktiv berilgan baho bilan dialog. Bu metod YE.A.Aleksandrov tomonidan taklif qilingan. G.Y.Bush tomonidan o'zgartirilib, yo'lga qo'yilgan. Dialogning mohiyati shundaki, kollektiv bo'lib g'oyalar ishlab chiqishda ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari faollashtiriladi va unga zid g'oyalar qo'yiladi.

Mashg'ulot bosqichma-bosqich quyidagi tarzda o'tkaziladi:

1-bosqich. Miqdor va psixologik muloqoti jihatidan maqbul kichik guruhlarini shakllantirish;

2-bosqich. Vazifa, muammodan kelib chiqadigan maqsadlarni ifodalash;

3-bosqich. To'g'ridan-to'g'ri «Fikrlar hujumi» qoidasiga asosan har bir guruhda g'oyalar ishlab chiqish;

4-bosqich. G'oyalarni tartibga solish va tasniflash;

5-bosqich. G'oyalarni destruktivlash, ya'ni amalga oshishi imkoniyatiga qarab baholash;

6-bosqich. Avvalgi bosqichlarda biddirilgan tanqidiy mulohazalarga baho berish.

Kichik guruhlarini tashkil etish. Guruhlarda ishlaydigan o'qituvchi birinchi mashg'ulot hal qiluvchi mashg'ulot hisoblanadi. U keyinchalik guruhli ishlarga yo'nalish beradi. Shuning uchun quyidagi shartlarga rioya qilish juda muhim. Birinchi guruh uchun.

1. O'qituvchi guruhni belgilaydi.
2. Qat'iy rahbarlik qilishi mumkin bo'lgan eng faol yoki boshqa o'quvchilar haqida o'ylab ko'ring.
3. Eng zeharli yoki juda qobiliyatli talabalardan tanlab har bir guruhga kiriting.

4. Zehni o'tkir bo'lmagan o'quvchilarni ham tanlab, har qaysi guruhga taqsimlang.

5. Guruhni 4 ishtirokchi bilan (nazaringizda bir-biriga mutanosib) to'ldiring.

6. Rahbarni guruh bilan oldindan uchrashtiring va ularning vazifasini tushuntiring.

7. Mashg'ulotlarga guruh vazifasini va rahbar vazifasini tushuntiring.

8. Har bir guruh doira shaklida o'tirsin. Har bir ishtirokchi hammani ko'rmaguncha

guruh ish boshlay olmaydi.

Ish vaqtida doimo har bir guruh atrofida yuring. Chunki savollarga xavob berasiz.

Muhokama oxirida o'z kuzatuvlaringizni, ayniqsa har bir guruhdagi yaxshi g'oyaga e'tiborni qaratib, gapirib bering.

Kichik guruhlarda ishlash uchun maslahatlar:

1. o'qituvchilar ishni bajarish uchun bilim va malakaga ega ekanligiga ishonch hosil qiling.

2. Guruhga aniq yo'riqlar ko'rsating. Guruhlar 1 yoki 2 yo'riqdan (hatto juda tushunarli bo'lsa ham) ko'piga rioya etishi amrimahol.

3. Qichik guruh uchun berilgan vazifaning bajarilishiga etarlicha vaqt bering.

Boshqa guruhlariga nisbatan vazifani erta bajargan guruhni band qilish yo'llarini o'ylab ko'ring.

4. Murakkab dasturni ishlab chiqish kerak bo'lganda guruhni 2-5 kishidan tuzing.

5. Kichik guruhda muhokama qilish uchun 5 kishi etarli.

6. Kychik guruhdagi ishlarni sinf uchun me'yorga aylantiring.

7. Baholash va mukofotlash. tizimingiz kichik guruhdagi ishlarga qanday ta'sir qilishi haqida o'ylab ko'ring. Muvaffaqiyatli guruhiy ish uchun guruhga mukofot tayyorlang.

8. Guruh ishi natijalarining qanday topshirilishini aniq tushuntiring. Guruh ishi haqida sinfga kimdir e'lon qilish kerak bo'lsa, uni oldindan tanlab qo'ying.

9. Jamoa bo'lib o'rganish vaqtidagi shovqinga ko'nikish uchun tayyorgarlik

ko‘ring.

10. Guruh tashkil qilayotganda o‘quvchilarga «tayziq» ko‘rsatmang. Odatda turli xil guruhlar maqsadga muvofiq.

11. Har qanday sharoitda ham guruh bilan munosabatda bo‘ling, guruhda ro‘y berayotganlarni kuzating va baholang.

Oliy ta‘lim jarayonlarida innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llash talabalarning axloqiy - estetik dunyoqarashini rivojlantirishga erishish natijasida ularda:

- ma‘suliyat va moslashuvchalik,
- muloqot madaniyati,
- ijodiy va qiziquvchanlik,
- tanqidiy va tizimli fikirlash,
- axborot va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish,
- shaxslararo va hamkorlik,
- o‘z-o‘zini yo‘naltirish,
- ijtimoiy mas‘uliyat kabi ko‘nikmalar tarkib topishiga erishilib, yoshlarda

jamiyat

foydasini nazarda tutgan holda mas‘uliyat bilan harakat qilish, ish o‘rnida va jamiyat orasida axloqiy-estetik dunyoqarashining rivojlanganligi bilan ajralib turishi ko‘zga tashlanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni
2. Байденко В. И. Выявление состава компетенций выпускников вузов как необходимый этап проектирования ГОС ВПО нового поколения: методическое пособие. М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2006. – 72 с.
3. Haydarova L. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida talabalarda axloqiy va

estetik kompetentlikning integratsiyalashuv tizimini takomillashtirish imkoniyatlari/
Inter
education & global study. DOI:10.24412/2992-9024-2024-3-45-53

4. Хусанов Б. Эстетик тарбия кластерлари таълим узвийлигининг муҳим
омили/ National University of Uzbekistan Volume 3 | NUU Conference 2 | 2022
Google

Scholar indexed Current Issues of Social Sciences and Humanities DOI:
10.24412/2181-
1385-2022-2-64-69 Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari